

№ 01-05-4588
« 5 » 09 20 24

Moliyaviy institutlar

O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (2004-yil 26-avgustdagi 660-II-son), shuningdek, "Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" (2017-yil 23-maydagi 2886-son) muvofiq, Sizga "Tenge Bank" ATB tomonidan jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida quyidagilarni ma'lum qilamiz:


- "Tenge Bank" ATBning jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga ishlab chiqilgan va tasdiqlangan;
- Jinoyat faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha mas'ul bo'lgan maxsus tarkibiy bo'linma – Komplains nazorati departamenti tashkil etilgan;
- Mijozlarni, jumladan benefitsiar mulkdorlarni, lozim darajada tekshirish choralari amalga oshirib boriladi;
- mijozlar va ularning benefitsiar mulkdorlarini identifikatsiyalash jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlar terrorchilik faoliyatida yoki ommaviy qirg'in qurolini tarqatishda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinayotgan shaxslar ro'yxati bilan solishtiriladi;
- Bank xodimlarini jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tayyorlash, qayta tayyorlash va o'qitish ta'minlanib boriladi;
- Bankda ichki nazoratni amalga oshirish jarayonida va mijozlarni lozim darajada tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni rasmiylashtirish, arxivlash va yangilash tartibi belgilangan;

Shuningdek, "Tenge Bank" ATB ro'yxatdan o'tgan davlatlarning hududida doimiy faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari bo'lmagan norezident banklar bilan munosabatlar o'rnatmaydi.

Sizga shuni ma'lum qilamizki, "Tenge Bank" ATB xalqaro iqtisodiy sanksiyalar va eksport-import cheklovlariga rioya qiladi va barcha mijozlari va hamkorlari/sheriklaridan ularga rioya qilishni talab qiladi.

Hurmat bilan,

**"Tenge Bank" ATB
Boshqaruv Raisi**



Faleyev B.X.

